

APPENDIKULYAR PERITONIT RIVOJLANISHINING APPENDEKTOMIYA AMALYOTI BAJARILGAN VAQTGA BOG'LIQLIGI

**Raxmatullayev Jo'rabek Dilmurot o'g'li , Safoyev Baqodir Barnoyevich,
Boltayev Temur Shavkatovich
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institute**

Mavzuning dolzarbligi O'tkir appenditsit xirurgik kasallik orasida uchrash holati 59-79% ini tashkil etishi, shundan 8-13 %i asoratlangan shaklda uchraydi, o'lim holati appenditsitdan keyingi peritonitlarda 8-22.5% hollarda uchraydi. Appendikulyar peritonit fonida o'lim ko'rsatkichining yuqoriligi bu kasallikning nechog'liq dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot maqsadi: appendikulyar peritonit rivojlanishini oldini olish maqsadida kasallik kechish xususiyatlarini o'rganish va davolash samaradorligini oshirish

Materiallar va uslublar. Buxoro shaxar tibbiyot birlashmasi va Vobkent tuman Tumanlararo qo'shma shikastlanishlar va o'tkir qon-tomir kasalliklari markazi 2022-2023 yillarda appendektomiya amalyoti bajarilgan 329 nafar bemorning kasallik tarixi retrospektiv tahlil qilish.

Natijalar. Bemorlarda o'tkir appenditsit klinik belgilari boshlangandan to appendektomiya amalyoti bajarilgan vaqtiga qarab quyidagilarga ajratildi. 1A kichik guruhda (n=123) kasalxonaga kasallik belgilari boshlanganidan va 10 soat ichida appendektomiya amaliyoti bajarilgan bemorlar; 1 B kichik guruhida esa (n = 175) kasallik boshlanganidan 24 soat ichida kasalxonaga yotqizilgan va appendektomiya amaliyoti o'tkazilgan holatlar; 1C- kichik guruhida (n = 31) kasalxonaga kasallik boshlangandan 72 soat ichida yotqizilgan va appendektomiya, qorin bo'shlig'ini sanatsiyasi va drenajlash amaliyoti bajarilgan. Tadqiqotda guruhlarining tenglik nuqtai nazaridan 20 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan va hamroh kasalliklari bo'lmagan bemorlar tanlangan. 1A guruh tarkibiga kiruvchi 123 nafar bemorning erta murojati natijasi sifatida ularning assosiy qismi (98.4%) qismi mahalliy appendikulyar peritonit 1.6 % diffuz peritonit rivojlanganligi aniqlandi. 24 soat ichida qabulga kelgan 1B guruh



bemorlarda 149 nafarida (85.2%) mahalliy peritonit, 24 nafarida esa (13.7%) diffuz peritonit, 2 nafar (1.7%) bemorda tarqalgan peritonit kuzatildi. 15 nafar (48.4%) bemorda maxalliy peritonit, 12 nafar (38.7%), 4 nafar (12.9%) tarqalgan peritonit eng ko'p qayd etilgan bemorlar guruhi esa og'riq boshlanganidan 72 soat va undan kechikib murojat qilgan va appendektomiya amaliyotini boshdan kechirgan.

Xulosalar. Qayd etilgan ma'lumotlardan namoyon bo'lishicha, chuvalchangsimon o'simta morfologik o'zgarishlariga fonida appendikulyar peritonit rivojlanishi bemorlarda og'riq paydo bo'lgan fursat hamda appendektomiya amaliyoti bajarilgan muddat oralig'ida kechgan vaqt bevosita aloqadordir. Aksariyat hollarda appendikulyar peritonit chuqurlashuvi nisbatan kech amalga oshirilgan operativ amaliyot natijasida yuzaga keladi.

Adabiyotlar

1. B.B.Safoev , A.Ya.Rahimov. Monografiya. O'tkir appenditsit Buxoro 2018 yil, 182 - bet .

2.B.B.Safoev , A.Ya.Raximov . Monograf / O'tkir jarrohlik kassalliklari. Appenditsit Buxoro- 2019, 173-bet. 3. Каримов Д. Р., Хаджибаев Ф. А., Мадиев Р. З. Видеолапароскопия в диагностике и лечении больных с атипичными и редкими формами острого аппендицита //Джанелидзеvские чтения-2023. – 2023. – С. 65.